



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 03 2022 YIL 28 MART

## ASSALOM, NAVRO'Z!

### YANGILANISH, YASHARISH BAYRAMI MUBORAK BO'LSIN!



Butun borliqni yashillikka burkab, qadam qo'ygan fasllar kelinchagi bahor nafasi qiru adirlar, bog'u rog'larda bo'y ko'rsatib, qalblarga ajib ilqlik, xushkayfiyat ulashmoqda.

Ona diyorumizga barchamiz orziqib kutgan - Navro'zi olam kirib keldi. Uyg'onish va yangilanish, qut-baraka elchisi Navro'zi ayyomi shukuhidan dillarimiz yayramoqda.

Aytish joizki, Navro'z o'zaro qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat timsolidir. Ezgulik, saxovatga yo'g'rilgan uyg'onish, yasharish ayyomi bu yil dillarimizni yana quvonchu shodlikka chulg'adi.

Fursatdan foydalanib hurmatli o'qituvchi-professorlar va talabayo'zlarni go'zal, tarovatli Navro'z

ayyomi bilan chin dildan qutlayman. Sizlarga avvalo sog'lik-omonlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat tilayman. Ilmiy izlanishlaringiz va o'qishlaringizda omad yor bo'lsin. Navro'zi olamning hayotbaxsh nurziyosi qalbingizni poklab, nurafshon aylasin. Barchangizga Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli va sharafli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!

Navro'z - yangi kun demakdir. Har bir xonadonga yangidan yangi rejalar, maqsadlarning qaror topishidek tole' nasib etsin. Navro'z shukuhi doimo qalblarimizni quvonchlarga to'ldirsin!

**A.SHADMANOV,**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori**

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining sog'liqni  
saqlash xodimlari bilan bo'lib  
o'tgan "O'zbekiston tibbiyoti  
- inson qadri uchun" nomli  
ochiq muloqot tibbiyotimizni  
rivojlanish istiqbolini belgilab  
berdi.**

## O'ZBEKISTON TIBBIYOTI - INSON QADRI UCHUN

Ochiq muloqot nafaqat Vatanimiz, balki mamlakatimiz tarixida ilk bora o'tkazilgan muloqot bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

So'nggi besh yil davomida yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar negizida inson salomatligi asosiy o'rinni egallaydi. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, yoshlarni oliy tibbiy ta'lim bilan qamrab olish, yosh mutaxassislariga sharoit yaratish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bir so'z bilan aytganda xalqni rozi qilish islohotlar mazmunining negizidir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarda tibbiy xizmat, tibbiy ta'lim, ilm-fanni rivojlantirish uchun sohadagi muammolarni yaqindan o'rganish, tahlil qilish va sohani rivojlantirish uchun takliflar olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan o'tkazilgan Inson qadri uchun nomli "Ochiq muloqot"ga qizg'in tayyorgarlik ko'rildi.

Dastlab ochiq muloqotga bo'lgan tayyorgarlik haqida. Ochiq muloqotga nafaqat tibbiyot xodimlari, balki aholi, yoshlar, ishchi-xizmatchilardan tushgan muammo va takliflar atroflicha o'rganib chiqildi. Ushbu muammo va takliflarni o'rganish uchun ishchi guruh tuzilib, murojaatlarni tunu kun qabul qiladigan "CALL" markazi va murojaat va takliflarni o'rganadigan axborot-tahlil bo'limi tashkil qilindi.

(Davomi 3-betda)

Hikmat



Bahor - fasllar gulshani, uyg'onish fasli.



Hikmat



## NAVRO'Z – MILLIY QADRIYATLAR TAROVATI

**Toshkent tibbiyot akademiyasida Navro'z umumxalq bayrami tantanali nishonlandi.**

O'zbek milliy akademik drama teatrida bayram munosabati bilan tantanali tadbir tashkil etildi. Unda Akademiyaning barcha professor-o'qituvchilari, xodimlari ishtirok etdi. Bayram tadbirida yig'ilganlarni Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori muborakbod etib, ezgu tilaklarni bildirdi.

Tadbir davomida ko'p yillar tibbiyot akademiyasida faol mehnat qilgan faxriylar hamda Navro'z bayrami munosabati bilan O'zbek milliy akademik drama

teatrida o'tkaziladigan tantanali bayram tadbirida yil davomida alohida yutuqlarga sazovor bo'lgan fakultet, kafedra va bo'limlar turli nominatsiyalar asosida esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Tadbir so'ngida Milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa'diyev barcha ishtirokchilarni bayram bilan tabrikladi. Undan so'ng teatr jamoasining bayram tuhfasini namoyish qilindi.

**TTA Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi**

## SEN BAHORNI SOG'INMADINGMI?

*Mana, bugun navro'zi olam,  
Do'stlarimga gullar tutarman.  
Qaylardasan, sevgili erkam...  
Qo'limda gul, seni kutarman,  
Umrimga bo'yi chorlab o'tarman,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?*

**degan edi ustoz Abdulla Oripov.**

Darhaqiqat, bahorni sevmaslik, sog'inmaslik aslo mumkin emas. Hatto eng mijjasi yoshsiz, qahri qattiq, bag'ritosh kimsalar ham bahorni entikib kutadilar. Jannatmakon diyorumizda bahor kezib yuribdi, go'dakdek mas'um, onadek mehribon, otadek saxovatli, singildek munisa... Qorlar tagidan boychechaklar bosh ko'tarayotgan, binafshalar, chuchmomalar, ismalog'lar, momoqaymoqlar ilohiy rang olayotgan qutlug' kunlarning ostonasida turibmiz.

Yangi kun – Navro'zning ilohiy qadamlarini his etib hovlimizda bulbullar sayramoqdalar. Ko'pchilik yetolmagan shunday qutlug' kunlar ostonasiga yetkazgani uchun betinim shukronalar aytamiz. Esnab, ko'zlarini ishqalab mitti chumolilar ham hovlim sahnida rizq-ro'zini izlab yuribdilar. Yaqinda yo'limiz tushib Samarqand viloyatiga bordik, laylakqorlar jo'shib yog'ayotganligiga qaramasdan ulkan simyog'ochlar ustidagi mahobatli inlarida laylaklar bitta oyoqda turib,

Navro'zi olamga ta'zim qilmoqdalar. Xalqimizning eng ardoqli shoirlaridan biri, marhum Muhammad Yusuf ushbu mahbub she'rini aynan mana shu faslda bitgan bo'lsa ne ajab:

*Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,  
Kokiliga tolpopukdan soch ilsin,  
Boychechakka borar yo'llar ochilsin,  
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimd.*

Baayni shayx Jaloliddin Rumi yanglig' butun bashariyatni ardoqlab boshiga ko'targan Mir Alisher Navoiy "Har tunung qadr o'lubon, Har kunung o'lsun navro'z" deganlarida umrimiz xuddi Navro'z kabi yasharib, yangilanib, ilhomlanib, quyoshlarga to'lig' bo'lishini nazarda tutganlar.

Muhtaram Akademiyamiz ahli jamoasi, hamkasabalar, ustozlar, ilm toliblari, hammangizni mustaqil yurtimizning eng ulug' va eng go'zal bayrami – Navro'zi ayyom bilan dildan qutlaymiz. Yangi kun – Yangi yilning ibtidosi hammamizga sharaf va omadlar, ofiyatlar keltirsin!

**Alijon ZOHIDIY,  
Turon Fanlar akademiyasi akademigi,  
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Turon Fanlar akademiyasi akademigi,  
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi**





## O'ZBEKISTON TIBBIYOTI – INSON QADRI UCHUN

(Boshi 1-betda)

– "CALL" markaz orqali 2021 yil 15 dekabr dan ayni paytgacha jami 25 ming 774 ta murojaat kelib tushdi, – deydi Axborot-tahlil bo'limi a'zosi, Toshkent tibbiyot akademiyasi prorektori Shuhrat Abdusalilov. – Murojaatlarning 17 ming 628 tasi tibbiyot xodimlaridan, qolgan 8 ming 146 tasi esa fuqarolardan kelgan. Murojaatlar hududlar kesimida va turkumlarga bo'lib tizimlashtirildi. Hududlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, eng ko'p murojaatlar Toshkent shahriga – 4 ming 756 ta, Namangan viloyatiga – 3 ming 86 ta, Toshkent viloyatiga – 2 ming 610 ta, Qoraqalpog'iston va boshqa viloyatlarga – 15 ming 322 ta murojaat to'g'ri kelmoqda. Tushgan murojaatlarning 58 foizi sohani rivojlantirishga, 21 foizi tizimdagi e'tiroz va kamchiliklarga, 21 foizi individual masalalarga oid.

Murojaatlar birlamchi tizim, oliy tibbiy ta'lim, ixtisoslashtirilgan markazlar, ijtimoiy himoyaga oid, tez tibbiy yordam, sanitariya-epidemiologiya sohasi, farmasevtika, ilm-fan sohasi, yuridik soha, malaka oshirish sohasi, sog'lom turmush tarzi, shoshilinch tibbiy yordam xizmati, xususiy tibbiyot, onaliksi muhofaza qilish, bolaliksi muhofaza qilish, o'rta maxsus tibbiy ta'lim, davlat xususiy sherikchiligi yo'nalishlariga bo'lib tahlil qilindi.

Murojaatlarning 14 ming 279 tasi, ya'ni 55 foizi birlamchi tizimga, 3 ming 248 tasi oliy tibbiy ta'limga, 2 ming 251 tasi ixtisoslashtirilgan yordamga, 5 ming 996 tasi boshqa yo'nalishlarga tegishli ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim murojaatlar vazirlik va uning hududiy bo'linmalarida tezkorlik bilan ko'rib chiqilib, kechiktirib bo'lmaydigan masalalar bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

Ijtimoiy himoyaga oid 76 foiz, onalik va bolaliksi muhofaza qilish bo'yicha 64 foiz, tez yordamga doir 56 foiz, shuningdek, boshqa yo'nalishlar bo'yicha murojaatlar 44 foizdan 12 foizgacha bo'lgan ko'rsatkich oralig'ida o'z yechimini topdi. Umumiy tushgan 25 ming 774 ta murojaatlardan 7 ming 874 tasi o'z yechimini topdi, 539 tasi ijro jarayonida, qolgan 17 ming 361 tasi esa takliflar sifatida qabul qilindi.

Kelib tushgan takliflar Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi xodimlar va boshqa yetakchi mutaxassislar hamda ekspertlar ishtirokida atroflicha muhokama qilib olindi.

Ushbu ochiq muloqotga tushgan

murojaatlar shuni ko'rsatdiki, tibbiyot xodimlari bilan birgalikda xalqimiz ham yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning kuzatuvchisi emas, balki bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda.

Ochiq muloqot 2022 yil 18 mart kuni poytaxtimizning muhtasham Simpoziumlar saroyida bo'lib o'tdi. Shuni ta'kidlash kerakki, qariyb 6 soatga yaqin vaqt davomida Prezidentimiz muloqot qildilar. Dastlab 2 soatdan ko'proq vaqt davomida davlat rahbaridan ma'ruza eshitdik.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida tibbiyotdagi muammolar va uni rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishlari bo'yicha muammolar va ularni yechimi bo'yicha takliflarni ta'kidlab o'tdilar.

Ushbu yo'nalishlar haqida qisqacha bayon qilsam:

Tibbiyotning birlamchi bo'g'inida muammolarga to'xtaldilar. Shifokorlarning oylik maoshlari kamligi, ularni ish hajmi yuqoriligi, joylarda aholi o'rtasida tibbiy xizmat yetarli darajada emasligi aytiladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlarga oylik maoshlariga 2 mln. so'm ustama haq to'lash bilan birga oylik maoshiga yana 10 foiz qo'shimcha mablag'lar berilishini aytib o'tdilar. Bundan tashqari, mamlakatimizni chekka hududlarida ish boshlagan yosh mutaxassislarga dastlab 30 mln. so'm pul berilishi, ipoteka uy joy berilishi va uni birlamchi 50 foiz to'lovi davlat tomonidan berilishini ta'kidlab o'tdilar. Har bir qishloqlarda qishloq vrachlik punktlari qurilishi topshiriqlari berildi. Shifokorlarga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berilishi ham yangilik bo'ldi. Bu asosan 60 yoshdan oshgan nafaqada bo'lgan shifokorlarni faoliyat yuritishi uchun imkoniyat bo'ldi.

Ochiq muloqotda mutaxassislarni diqqatini tortgan yo'nalishlardan sohani yanada rivojlantirish, tibbiyotni keyingi bosqichga olib chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari faoliyatini transformatsiya qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi masalalar o'z yechimi topdi. Birgina 2022 yilda 1100 ta qishloq vrachlik punktlari qurilishi, qishloq vrachlik punktlarida pediatrialarni faoliyat olib borilishi, bolalarga davlat tomonidan yod preparatlari tarqatilishi aytib o'tildi. Qishloq vrachlik punktlarida 3 yil ishlagan shifokorlarga klinik ordinaraturaga imtihonisiz qabul qilinishi belgilandi. Yana quvonarli holat shuki, mushak atrofik

distrofiyasi va yurak tug'ma porogi bo'lgan bolalar davlat tomonidan bepul operatsiya qilishini ta'kidlandi.

Tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish bizni diqqat e'tiborimizda bo'ldi, bunda o'rta tibbiy va oliy tibbiy muassasalarda ta'lim berishni integratsiya qilish lozim ekanligi aytib o'tildi. Bunda barcha tibbiyot institutlariga 47 ta jamoat salomatligi tibbiyot texnikumlari va 27 ta tibbiyot kollejlari birlashtirilishi vazifa sifatida qo'yildi. Bunda barcha texnikumlarni o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilib, ularni o'quv rejasiga institutlarni 1 kursida o'qitiladigan fanlar kiritilishi, u yerda institut o'qituvchilari dars berishi, natijada institutga qabul qilinayotgan yoshlarni 50-60 foizini institutni o'zi tayyorlashi uqtirildi. Bundan tashqari, xalq tabobati bo'yicha Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida 40 ko'kali bo'lim ochilishi, ta'lim jarayonlariga xalq tabobati bo'yicha mavzularni kiritish lozimligi ta'kidlandi.

Mamlakatimiz hududlarida yetishmayotgan ftiziatriya, pulmanologiya, gastroenterologiya, yuqumli kasalliklar kabi yo'nalishlarga magistraturaga kirish kvotasi 4 barobar oshirilishi va ushbu yo'nalishlarga faqat davlat granti ajratilishi ham quvonch bilan kutib olindi.

Ma'ruzadan so'ng tibbiyot soha vakillarini qiziqtirgan savollar va ularga javoblar yangradi. Markaziy studiyada 1 mingdan ortiq soha vakillari va hududlarda 10 mingdan ziyod mutaxassislar masofaviy ulanishdi. Hammasi bo'lib 30 dan ortiq savollar va ularni javoblari tibbiyotni strategik rivojlanishiga bag'ishlandi. Unda tez tibbiy yordam, oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktlarini yangi asbob-uskunalar bilan jihatlash, chaqaloqlar neonotal xirurgiyasini rivojlantirish kabi dolzarb masalalar manzilli yechimini topdi.

Bo'lib o'tgan tadbir mamlakatimiz tarixida ilk marotaba o'tkazilayotganligini inobatga olsak, unda ishtirok etgan butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakillari, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan chet ellik hamkorlar ham katta qiziqish bilan ishtirok etishdi. Muhokama qilingan savollar tizimli muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarni amalga oshirilishi lozim ekanligi ta'kidlandi.

**Shuhrat BOYMURADOV,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori







## **Ayollarsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlari, mohir va uddaburon murabbiylari, mehribon va oqila tarbiyachilaridir. Ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamiz, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz.**

Jamiyatning qay darajada rivojlanganligini bilishni istasang, uni ayollar va bolalariga ko'rsatayotgan g'amxo'rlikidan anglasang bo'ladi. Jamiyat qanchalik boy bo'lsa, u o'z yurtidagi bolalar va ayollarga shunchalik g'amxo'rlik qiladi. Haqiqatdan ham yurtimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq ayollar va bolalarga bo'lgan e'tibor siyosat darajasiga ko'tarildi. Oila qurish, ona bo'lish, sog'lom farzandni dunyoga keltirish, bolani har tomonlama sog'lom, intellektual yetuk inson qilib tarbiyalash – bu ulkan baxt deya uqtirildi.

Ayollarimiz jamiyatimizning ko'p qismini tashkil etadi. Agar statistik ma'lumotlarga nazar solsak, jumladan, respublika aholisining 51 foizi xotin-qizlardan iborat bo'lib, qishloq xo'jaligida 39 foiz, ilm-fanda 73 foiz, xalq xo'jaligida 42 foiz, sog'liqni saqlash tizimida 73 foiz, xalq ta'limida 65 foiz xotin-qizlar faoliyat ko'rsatar ekan. Respublikamizda oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan mutaxassislarining har ikkinchisi ayoldir. Tibbiyot sohasidagi ilmiy xodimlarning qariyb 53 foizini ayollar tashkil etadi. Shunday ekan, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal etish mushkul.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ayol kishiga bo'lgan ehtirom juda ulug'lanadi. Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning oiladagi, jamiyatdagi mavqeiini oshirish hamda ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilingani bejiz emas.

Ana shunday farmonlardan biri kuni kecha "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimizning Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 sentyabrdan byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib byudjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi.

- OTM, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga byudjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi;

- davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovleri qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;

- xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi;

- har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to'lab beriladi;

- mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi;

- davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi;

- xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratiladi;
- ayollarni pensiya yoshiga to'lganligi

TTAda tahsil olayotgan jami 7771 nafar talabaning 3704 nafari – qizlardir. Qizlarning 23 foizi oilali. 540 nafar talaba qizlar oilali.

Talabalar turar-joylarida istiqomat qilayotgan qizlar soni 1210 nafar bo'lib, ularni yashash va o'qishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Qizlarimizni o'qishdan keyingi bo'sh vaqtni samarali o'tkazish uchun 80 dan ziyod fan to'garaklari, 28 turdagi to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda. Kitobxonlik to'garaklari soni 7 ta, ijodiy to'garaklar soni – 27 ta shuningdek, qizlarimizni oilaga tayyorlash maqsadida pazandachilik, oila psixologiyasi, tikuvchilik, oilaga tayyorlash kursi, "Qizlarjon klubi" faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

TTAda tahsil olayotgan qizlarimizning 1500 dan ortig'i iqtidorli talaba-qizlar bo'lib, ulardan bir nafari talaba Islom Karimov nomidagi stipendiyasi sovrindori. Shu bilan birga Toshkent tibbiyot akademiyasining "Zulfiyaxonim" nomidagi maxsus stipendiyasiga jami 8 nafar talaba qizimiz sazovor bo'lgan.

Bundan tashqari, TTA tahsil olayotgan talaba qizlarning 48 nafari – "Temir daftar" hamda "Ayollar daftari"ga kiritilgan oila farzandlari hisoblanadi.

Chin yetim talaba qizlar soni – 9 nafar, otasi yoki onasi yo'q talaba qizlar – 62 nafarni tashkil etadi. Nogiron talaba-qizlar – 26 nafar.

Yuqorida nomlari keltirilgan talaba qizlarimiz TTA tomonidan doimiy moddiy rag'batlantirilib kelinmoqda, masalan:

- \* 1 nafar chin yetim talaba qiz hamda 1 nafar Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi davlat qaramog'iga olingan.

- \* 1 nafar nogiron talaba ish bilan ta'minlandi.

- \* 5 nafar talabaga TTAning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining olti barobari miqdorida (4 483 800) moddiy yordam berildi.

- \* TTAda tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 135 nafar talaba-qizga 2021 yil dekabr oyi yakunida Yangi yil bayrami munosabati bilan moddiy yordam berilgan.

Qadrli opa-singillar! Har bir Ayolning niyati bitta, u ham bo'lsa yurtini tinchligi, oilasining farovonligi. Har bir ayolning orzusi yagona – u ham bo'lsa farzandlarining kamolini ko'rish.

Aziz va muhtarama ayollar, go'zal va dilbar opa-singillar! Sizlarni barchangizni TTA XQQ nomidan yangilanish davri – Navro'zi olam bilan chin yurakdan tabriklaymiz. Siz va sizning tinsolingizda oila a'zolaringizga sog'lik, xotirjamlik, ish va o'qishlaringizga rivoj tilaymiz.

**Lola ABDUQODIROVA,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Xotin-qizlar kengashi raisi

## **AYOLNI ULUG'LAMOQ – VATANNI ULUG'LAMOQDIR**

sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatish taqiqlanadi;

- "Ayollar daftari"ga kiritilganlarga 40 mln. 500 ming so'mgacha kredit beriladi;

- xotin-qizlarning kasb o'rganishga qilgan xarajatlarini davlat to'lab beradi;

- "Ayollar daftari"ga kiritilgan yolg'iz ayollarning farzandlari ham bog'chaga imtiyozli ro'yxat asosida qabul qilinadi;

- og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar beriladi;

- 12 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til beriladi;

- 2 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar yengilroq ishga o'tkaziladi;

- homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishda dastlabki sinov qo'llanilmaydi;

- rahbarlik lavozimiga tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtiroki ta'minlanishi farmonida keltirib o'tilgan.

Shu o'rinda TTAda ham ko'p millatli xotin-qizlar faoliyat ko'rsatib, tahsil olayotganini aytish joiz. Raqamlarga murojaat etsak: Toshkent tibbiyot akademiyasida faoliyat olib borayotgan jami ayollar soni – 676 nafar bo'lib, shulardan professor-o'qituvchi ayollar soni – 501 nafarni tashkil etadi. Shundan: tibbiyot fanlari doktori – 76 nafar tfn (PhD) – 170 nafar, ilmiy darajasi yo'q o'qituvchilar esa – 255 nafardir. Ma'muriy xo'jalik bo'limi xodimlari – 153 nafarni tashkil etadi.



## KADRLAR TAYYORLASHDA IJTIMOYIY FANLARNING ROLI

**Jahon taraqqiyotining, jumladan, O'zbekiston Respublikasi rivojining harakatlantiruvchi kuchi, taraqqiyotini tezlashtiradigan omil bu malakali, zamon talablariga javob bera oladigan, professional mutaxassislar hisoblanadi.**

Bu kabi kadrlarni, shubhasiz, oliy ta'lim tizimi tayyorlab beradi. Shu sababli butun dunyo taraqqiyotining tamal toshi, mamlakatni qudratli, millatni buyuk eta oladigan ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratmoqda. Yetuk kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy fanlarning o'рни katta. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham deyarli har bir chiqishida yoshlar va kadrlar tayyorlash mavzulariga to'xtalishi hamda bunda ijtimoiy fanlarning o'рни beqiyos ekanini ta'kidlashi bejjiz emas. Davlatimiz rahbarining yaqinda chop etilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ham ijtimoiy fanlari o'qitishni chuqurlashtirish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: nega bugungi kunda butun dunyo ta'lim tizimida keng qo'llanayotgan kredit-modul tizimi davrida ya'ni, oliy ta'lim muassasalarida faqat mutaxassislik fanlar o'qitilishi tobora kun tartibiga chiqayotgan bir paytda kadrlar tayyorlashda ijtimoiy fanlarning o'рни muhim? Sababi shundaki, bugun aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarish va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy hamda keng tafakkurli yoshlarni tarbiyalash nihoyatda muhim. Shakllanayotgan yosh avlod ya'ni, yosh kadrlar, agar ma'naviyatli, o'zbek xalqi an'analari, urf-odatlaridan xoli va aksincha turli ommaviy madaniyatlar bilan chalgigan bo'lsa, manqurtga aylanib qolishi tabiiy.

Mustaqillikning ilk yillarida respublikamizda ijtimoiy fanlarni yangi dastur asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy fanlar jumladan, falsafa — barcha fanlardan oziqlanadigan umuminsoniy va universal fan hisoblanadi. Uning hayotiyligi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos ekani, jamiyat manfaatlarini va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq.

Sobiq ittifoq davrida so'z va vijdon erkinligi turli yo'llar bilan bog'ib kelingan biryuqlama dunyoqarash zo'rlik bilan singdirilgani tufayli falsafa quruq safsata va zerikarli aqidaga aylanib qolgani

achchiq haqiqatdir. Shu bois u o'z davri mafkurasi bilan birga o'tmishga aylandi. Bu borada oddiy tilda yozilgan qo'llanmalar, xalqchil kitoblar, afsuski, hali ham yetarli emas. Odatda, mutaxassis bo'lmagan ba'zi kishilar falsafani eng qiyin va eng mavhum fan, deb hisoblaydilar. Buning sababi nimada? Buning boisi shuki, falsafa ko'p yillar mobaynida oddiy va ravon tilda tushuntirilmas, aksincha, turli qonun va qoidalar, xilma-xil ta'limot va g'oyalar majmuidan iborat murakkab fan sifatida talqin etilar edi. U yoki bu falsafiy qoida nega kerak, ularni o'rganishning qanday ahamiyati bor, muayyan faylasuf aynan biror-bir g'oya yoki ta'limotga ko'proq ahamiyat berganining sababi nimada, nima uchun uning qarashlarida aynan ana shu muammo ustuvor bo'ldi, degan masalalar ko'p hollarda nazardan chetda qolar edi. Falsafa tarixiy voqe'lik bilan bog'lab tushuntirilmas, falsafiy ta'limotlar o'z asoschilari hayotining uzviy qismi ekani yoddan chiqarilar edi. Oqibatda nima bo'lar edi? Falsafa fani mutaxassisligiga yo'naltirilmagan bo'lmagan talabalarning nihoyatda oz qismigina bu fanning asl mohiyatini tushunib olardi, xolos. Aslida, falsafaning asosiy vazifasi — inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biror-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishonitirish, xilma-xil fikrlarni o'rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Jumladan, buyuk olim, tabib, Ibn Sino ham falsafani chuqur egallagan. U Islom falsafasida nafs haqidagi o'ziga xos nazariyasi bilan shuhrat qozondi. U nafsning borligi, abadiyligi va jasadga bog'liqligi hamda boshqa masalalarni hujjat va dalillar bilan isbotlab berdi.

Ibn Sinodan bizga 280 dan ortiq asarlar meros qolgan. Shundan 50 tasi tibbiyotga, 185 tasi falsafa va ijtimoiy-siyosiy muammolarga bag'ishlangan. Shuning uchun tibbiyot olamida Ibn Sino falsafani chuqur bilgani uchun yetuk tabib bo'ldi degan e'tirof bor. Ibn Sino

inson tanasi va qalb birligi tirik jonni hosil qiladi; falsafiy fikrlovchi insonga aqli qalbni qabul qilishga moyil tana asos bo'ladi. Mutloq haqiqatga fikrlash jarayonining eng yuqori nuqtasida hozir bo'luvchi ichki hissiyot orqali erishiladi deb ta'kidlaydi. Prezidentimizning yuqorida bergan tavsiyalari va talabi asosida tibbiyot oliygohlarida ijtimoiy fanlarni o'qitishni kuchaytirishim zarur. Ijtimoiy fanlarni kamaytirgan holda yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkindir. Ammo haqiqiy vatanparvar, millat uchun g'am chekadigan insonni tarbiyalash ancha mushkul ish. Uchinchi Renessans haqida qanchalik ko'p gapirmaylik, harakat qilmaylik, uning tub mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordamida yoshlar ongiga singdirib bo'lmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar Uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishining "katalizatori" hisoblanadi. Aynan, ijtimoiy-gumanitar fanlar xalq va millatni uyg'otishga qodir kuch hisoblanadi.

Shu sababli ham Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonunni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji mavjud deb alohida ta'kidlagan. Yangi Uyg'onish – Renessans davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratish, xalqimiz hayotini farovon qilish va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki Toshkent tibbiyot akademiyasi ijtimoiy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur fanlarni o'qitish masalasiga jiddiy yondashib, ijtimoiy fanlar kafedrasini moddiy-texnik bazasini barcha texnik vositalar bilan ta'minlab, shart-sharoitlarni yaratib berib kelmoqda.

**D.NORQULOV,**

**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasini  
professori, falsafa fanlari doktori,  
L.MAXMUDOV,**

**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasini o'qituvchisi**





## XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING YANGI TIZIMI

*“Donishmand xalqimiz hamisha ayollarni e'zozlab yashagan, xotin-qizlarga yuksak ehtirom ko'rsatib yashash el-yurtimizga xos azaliy qadriyatga aylangan. Buni muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri – “Niso”, ya'ni “Ayollar” deb atalishi ham tasdiqlaydi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Muqaddas Hadisi sharifda ham xotin-qizlarga doim yaxshilik qilish buyurilgan”.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

**Mamlakatimizda aziz va mo'tabar ayol zotini ulug'lash, opa-singillarimizning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, o'zining ko'p yillik samarali mehnati, boy amaliy tajribasi bilan oilalarda ma'naviy-ahloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlariga katta hissa qo'shayotgan xotin-qizlarimizni munosib qadrlash maqsadida yurtimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.**

Joriy yilning 1 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada yuksaltirish hamda mustahkamlashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasining yangi tizimi belgilab berildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamaganini, ushbu muhim vazifalar ijrosini tizimli tarzda har bir mahalla kesimida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasini tashkil etish bo'yicha farmonni imzolaganini ta'kidlab o'tdilar.

Farmonga ko'ra 2022 yil 1 sentabrdan budjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol harajatlari miqdoridan kelib chiqib budjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi.

2022/2023 o'quv yilidan Oliy ta'lim muassasalari texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga budjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi. Davlat Oliy

ta'lim muassasalarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi. Har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetdan to'lab beriladi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi. Davlat ilmiy tashkilotlari yoki Oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 55 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

Jamiyatda o'z nufuziga ega o'nlab ayollar “O'zbekiston Qahramoni”, “O'zbekiston fan arbobi”, “O'zbekiston xalq o'qituvchisi”, “O'zbekiston xalq shoiri” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlariga, orden

va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi va iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqda. Yurtimizda Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida keng ko'lamli islohotlar yildan yilga izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandlikka keng jalb etishga alohida e'tibor qaratilayotgani bugungi kun ayollariga ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi orqali ilgari surilgan obro' e'tiborli, katta hayot tajribasiga ega ayollardan iborat “Oqila ayollar” harakati, zahmatkash olimlar mehnatini ulug'lash va ularni munosib rag'batlantirish maqsadida “Olima ayollar” jamiyatlarining tashkil etish ayollar nufuzi va jamiyatdagi o'rnini munosib yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bir so'z bilan aytganda Davlatimiz rahbari tomondan ayollarga berilgan ulkan imkoniyatlar kelajakda o'z samarasi bergan holda Yangi O'zbekistonning porloq istiqboliga xizmat qiladi.

**Nigora HAKIMOVA,**

**TTA akademik litseyi Yoshlar masalalari ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari**



## TALABALAR BANDLIGINI TA'MINLASHGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR

**So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati yoshlar kamolotiga qaratilmoqda.**

Mamlakatimizning 60 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi yoshlarga taraqqiyotimizning asosiy buniyodkorlari sifatida qaralmoqda. Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi bo'lib o'tgan yig'ilishda yoshlar bandligi va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish, talabalarga ko'proq ish o'rinlarini tashkil etish orqali ularning kasbiy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga katta e'tibor berildi. Xususan, ushbu masalalar yuzasidan Toshkent tibbiyot akademiyasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmog'ida. Talabalarining ilmiy va ijodiy izlanishidan kelib chiqib, ularga ta'lim muassasasi va boshqa tashkilotlardan vakant ish o'rinlari ajratish belgilangan. Toshkent tibbiyot akademiyasida hozirgi kunda 8080 nafar talaba tahsil olib kelmoqda. Ulardan 6885 nafar bakalavriyat, 825 nafar magistratura, 370 nafari klinik ordinatorlar va 138 nafari xorijiy talabalaridir. Ular orasidan ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar saralanib, moddiy va ma'naviy ko'mak berib kelinmoqda. Hozirgi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasida 514 nafar talaba ijtimoiy himoyaga muhtoj talaba hisoblanadi.

Ishlashga xohishi va layoqati bor talabalarining ma'lumotlari jamlanib, Akademiyada bandlik markazi faoliyati tashkil etildi. Bundan tashqari, talabaning xohish va layoqatidan kelib chiqib, Akademiyada mavjud vakant ish o'rinlarini taqsimlash, tashqi vakant ish o'rinlarini izlash va talabalarni ishga joylashishiga ko'maklashib borish nazarda tutilgan. Hamkorlikda tashkilotlarning ish beruvchilar bilan turli shartnomalar asosida talabalar darslariga halaqit bermagan holda qulay sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Birinchi navbatda Akademiya talabalarini ishga joylashganini aniqlash maqsadida ular o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Unda 6000 dan ortiq talaba ishtirok etdi. So'rovnoma natijalariga Akademiya xodimlari tomonidan tahlil qilinib, uning natijalariga ko'ra:

So'rovnomada ishtirok etgan Akademiya talabalarining 708 nafari (11,8 foiz) ishlab kelayotganligi, ulardan rasmiy ravishda 168 nafari (2,8 foiz) va norasmiy ravishda 540 nafari (9 foiz) ishlab kelayotganligini ma'lum qilishgan.

So'rovnomada ishtirok etgan 5292 nafar (88,2 foiz) talabalar ishlamayotganini bildirishgan.

Ishlamayotgan talabalarining 780 nafari (13 foiz) ishlash istagini bildirishgan. Davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqdan keyin ishlash xohishini bildirgan Akademiya talabalarining 65 nafari 0,5 stavkaga ichki

o'ringlik tartibida turli lavozimlarga ishga qabul qilindi. Bundan tashqari, Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari institutining 4 nafari Akademiya axborot texnologiyalar markaziga, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 5 nafar talabasi esa TTA moliya va iqtisod bo'limiga ishga olinishni rasmiylashtirilmog'ida.

Bugungi kunda Akademiyada mavjud ish o'rinlari hisobidan 50,75 stavka (102 ta) talabalar uchun qo'shimcha ish o'rinlar (Axborot-resurs markazi, axborot texnologiyalari bo'limi, talabalar turar joylari va boshqalar) yaratildi. Bulardan 33 stavka (66 nafar talaba 0,5 stavkadan) talabalar uchun, 17,75 stavka (35 nafar 0,5 stavkadan) magistrant va klinik ordinatorlar uchun maqsadli vakant o'rinlari ajratildi.

Talabalarni fan, sport, ijodiy to'garaklarga jalb qilish va to'garak rahbarlari qilib haq evaziga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida 25 nafar talaba uchun sharoit yaratildi, shundan 9 nafari shartnoma asosida ishga olindi va ularga mehnatga haq to'lashni eng kam miqdori barobari, ya'ni 822 ming so'mdan pul to'lash belgilandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar, fan olimpiadalari g'oliblari, xalqaro konferensiyalar ishtirokchilari, turli ko'rik-tantovlarda g'olib bo'lgan talabalar, shuningdek, ijtimoiy muhtoj jami 3400 nafar talabaga 2021 yil davomida 2 mlrd. 300 million so'm miqdorida moddiy rag'batlantirish puli berildi. Joriy yilning ikki oyi davomida 48 nafar talaba 52 million so'm miqdorida moddiy rag'batlantirdi.

Ko'ngilli talabalardan iborat "Bunyodkor" qurilish-ta'mirlash otryadlari faoliyati yo'lga qo'yilib, hozirda 10 nafar talaba bilan haq to'lash evaziga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida darsdan keyin xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ta'mirlash ishlariga jalb qilindi. Ayni paytda qurilish sohasida turli hunari bor talabalardan iborat mazkur otryadlarni sonini ko'paytirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Shu kungacha 40 ga yaqin talaba ariza bilan murojaat qilishdi.

2021 yilda fundamental ilmiy-tadqiqot grant loyihalariga o'rta-maxsus kasb-hunar diplomiga ega 7 nafar talaba laborant lavozimiga jalb qilindi.

Kelgusida talabalarni ish bilan ta'minlash ishlarini jadallashtirish yuzasidan alohida rejalar va maqsadli vazifalar belgilangan. Xususan, Akademiyaning bosh o'quv binosi ishga tushishi munosabati bilan yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining 25 foizini talabalar uchun ajratish rejalashtirildi.

Kelgusida magistratura talabalari va klinik ordinatorlarni kafedralardagi mavjud xona mudirlari, laborantlar va boshqa bo'limlar uslubchisi lavozimlariga ishga olish, magistratura talabalari va klinik ordinatorlarini Toshkent shahridagi davlat va xususiy tibbiyot muassasalariga UASH shifokori va boshqa ishlariga joylashtirish, sog'lom turmush tarzini muntazam targ'ib qilib kelayotgan 16 nafar volontyor talabalarga muntazam ravishda moddiy rag'batlantirishni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzish orqali TTAda maishiy xizmat yo'nalishlari bo'yicha talabalarga bo'sh ish o'rinlarini ajratish, shu asnoda Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-o'quv binosini 1-qavatini maishiy xizmat ko'rsatish uyi uchun ochish, nodavlat, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish istagida bo'lgan shaxslarga huquqiy va uslubiy yordam ko'rsatish, maishiy xizmat ko'rsatish uyi kompyuter xizmatlari, fotosalon, tikuvchilik, go'zallik saloni va sartaroshxona, poyyabzal ustaxonasi va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish xonalari tashkil etish va talabalarni ishga jalb qilish ham rejalashtirilgan.

Akademiya tomonidan vazirlik va idoralarga qo'shimcha takliflar bildirilib, yuqori kurs talabalarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ham takliflar kiritilmoqda.

Mamlakatimizdagi tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasalarining uchinchi kursini tugatgan talabalarga o'rta-maxsus ma'lumotli tibbiyot yoki farmasiya mutaxassisi guvohnomasi berish, talabalarni ishga olgan davlat va xususiy tashkilot, korxonalar va muassasalarga turli soliq imtiyozlari (foйда solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i va yer solig'idan) joriy etish, shuningdek, ishlab kelayotgan talabalarining ish haqidan daromad solig'ini undirmaslik to'g'risidagi normani Soliq kodeksining 378-moddasiga kiritish, hunari bor talabalarga (sartaroshlik, chevarchilik, oshpazlik, kompyuter xizmatlari ko'rsatish va boshqalar) mahalliy hokimlik bilan hamkorlikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tishga yordam berish va oliy ta'lim muassasasi hududida mavjud bo'lgan bo'sh turgan xona-joylardan ijara haqqisiz (kommunal to'lovlardan tashqari) joy ajratishni ham taklif asosida berilgan.

**Shuhrat BOYMURADOV,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv ishleri bo'yicha prorektori







## PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

**Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini belgilashda oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi. Har qanday davlatning asosiy va inkor etib bo'lmaydigan intellektual imkoniyatlari tez sur'atda rivojlanishi ta'lim tizimini isloh qilish orqali yaratiladi.**

Jamiyat a'zolarining savodxonligini oshirish orqali davlat o'z iqtisodiyoti va jamiyatining yashash tarzi darajasini yuksaltiradi. Tobora rivojlanib borayotgan ta'lim texnologiyalari esa oliy ta'limni jahon bozorlarida naqadar zarurligini ko'rsatib bermoqda. Buning uchun albatta yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori saviyadagi pedagoglar zarur bo'ladi. Prezidentimizning 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan shu yilning o'zidayoq TTA huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi o'quv jarayonlarini yuqori saviyada olib borish uchun tajribali va yuqori salohiyatli malakali professor-o'qituvchilar jalb etildi.

Bugungi kunda jahon miqosida rivojlanib borayotgan texnologiyalar ta'lim sohasi, xususan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq jarayonlarda jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa tibbiyot mutaxassislarining chet tillarini bilishi ham kasbiy ham ilmiy bilimlarini oshirishda muhimdir. Davlatimiz rahbarining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga mos ravishda TTA huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi o'quv jarayonlarini boshidanoq tibbiyot sohasi mutaxassislarining chet tillari, xususan ingliz tilini bilishlari uchun keng ko'lami ishlar olib borildi. Xususan "Amaliy xorijiy til" moduli bo'yicha tibbiyot mutaxassisligiga yo'naltirilgan ingliz tili ishchi dasturi ishlab chiqilib, nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganish ehtiyojlarini aniqlashda quyidagilar asos



sifatida olindi: tinglovchining ayni vaqtda til bilish darajasi; tinglovchining zaif tomonlari; tinglovchining til bilishdagi xohish istaklari; mutaxassisning ingliz tiliga kasbiy ehtiyoji. Shularni hisobga olgan holda, tinglovchilar bilan maxsus akademik maqsadlarda ingliz tili bilan shug'ullanishni o'z oldiga muayyan soha bo'yicha ilmiy-kasbiy terminologiyani o'rgatish, ilmiy adabiyotlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish, ilmiy maqola yozish va xalqaro konferensiyalarda ma'ruzalar qila olishni, shuningdek, sohaga oid eng so'ngi ma'lumotlar bilan tanishishga ko'maklashishni maqsad qilib qo'ygan.

Bugungi pandemiya sharoiti tibbiyot yo'nalishi tinglovchilarining onlayn tarzda ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizimini ishlab chiqish kerakligini ko'rsatdi. Bunday holatda xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda ZOOM orqali "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili moduli"dan darstar muntazam ravishda tinglovchilar bilan ishdan ajralmagan holatda olib borilmoqda. Prezidentimizning 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan pandemiya davrida ham tilga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va darstar onlayn tarzda samarali olib borilishini taqozo etmoqda.

Zamonaviy mutaxassis jadal odimlar bilan globallashev jarayonini bosib o'tar ekan u albatta ikki va undan ortiq tillarni bilishi zarur. Shu sababdan tarmoq markazimizda malakasini oshirayotgan tinglovchilarni ingliz tilida zamonaviy bilimlarga ega mustaqil fikrlaydigan ijodiy

tafakkur sohibi bo'lishi uchun ularga lingvistik kompetensiya tarkibidagi tinglab tushunish (Listening), gapirish (Speaking), o'qish (Reading), yozuv (Writing) bo'yicha materiallar taqdim etilyapti. Tajribalardan kelib chiqadigan bo'lsak, tibbiyot mutaxassislariga ko'proq Speaking, Reading, Listening materiallari ularga pandemiya sharoitida ZOOM orqali xalqaro konferensiyalarda mavzularni tinglab tushunishlari va shu jumladan muhokamada bemaol o'z fikrlarini bayon etishda samarasini berayapti. Writing esa ularning ilmiy maqolalar, xatlar, shaxsiy ma'lumotlar yozishlariga ko'mak beradi. Shuni hisobga olgan holda har bir dars davomida tinglovchilarga tinglab tushunish uchun sohaga oid tele va radio dasturlar, gapirish uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha taqdimotlar va tibbiyotga oid matnlarni o'qib, umumiy mazmunini tushunish uchun materiallar taqdim etiladi.

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablari, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob berishi lozim. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishni taqozo etadi.

**Gulchexra XAZRATOVA,**  
TTA huzuridagi pedagog  
kadrlarni qayta tayyorlash va ularni  
malakasini oshirish  
tarmoq markazi katta o'qituvchisi





## IJODI VA UMR YO'LI BIZ UCHUN HAYOT MAKTABI

**Atoqli va ardoqli shoiramiz Zulfiyaxonim Isroilova qalbimiz, yuragimizning tub-tubidan joy olgan desak adashmagan bo'lamiz. Har bir she'riy satri har bir ko'ngilda o'z o'rniga ega.**

Darhaqiqat, Zulfiyaxonimning ijodiy umr yo'llari, balki hayot yo'llari ham biz uchun saboq hamda chinakam sadoqat va vafotayug'ularining haqiqiy isbotidir. Shoira shu yo'lga o'tgan dostonlarini o'qir ekanimiz, satrlar bizlarni nafasatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda.

Ko'p hollarda she'r o'qiganimizda, yakunida bir xulosaga kelamiz, lekin Zulfiyaxonimning har satri haqiqiy xulosa chiqarish uchun yetarlidir. "Xotiram siniqlari" she'riy dostonida odamiylik, sadoqat, vafoni komillikning bosh mezon darajasiga ko'targan. 1944 yili shoira turmush o'rtog'i Hamid Olimjonidan ayriladi. Bu vaqtda o'ttizga ham to'lmagandi. Zulfiyaxonim ayriliq alami, hijron azobidan qiynalgan vaqtda ham she'rlari unga hamdard bo'ldi.

*Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,  
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.  
Yoziqni devorga urdim-u biroq  
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.*

Zulfiya irodasi kuchli, vafodorlik hissi uni satrlarida ham sezilib turadi. Ayni o'sha vaqtlarda urush vaqtiga to'g'ri kelib, butun xalq ancha qiyinchilik, azob-uqubat ko'rishgan, yurt hokimlari siyosatlarini bu davrdagi aholi orasida "yangi hayot" deb o'ylashlari, "vatanparvar" kabi o'zlarini his qilishlari yuqori iste'dod bilan aks ettirilgan. Istiqbol, Istiqbol, Hurriyat kelganini bilib, qalbi, so'zi, ko'zi bilan bag'riga bosishini va albatta jon Vatanimizda abadiy qolishini, el-yurt taqdirida mangu hurriyat bo'lishini go'zal satrlar ila tasvirlab bergan.

"Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,  
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim..."  
degan edi, Zulfiyaxonimning bu satrlari o'z isbotini topdi. Zulfiya ijod va umr yo'llari biz uchun hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi.

**Marjona QIYOMOVA,**  
"Biotibbiyot muhandisligi" fakulteti  
1-bosqich talabasi  
Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya  
sovrindori

**Ijodkor qalamidan yaraladigan har bir ijod mahsuli shu qalbning jozibasidan sayqallanib fikrga ko'chadi, bu turfa o'ylar ko'chasidan o'quvchining yuragiga eng yaqin yo'lni tanlab, o'sha yerda qo'nim topadi. U makon qilgan yangi qalbgaga o'z egasiga berolgan hayajon kabi o'tli hislarni armug'on qilolsagina, haqiqiy, go'zal asar bo'la oladi.**

## ZULFIYAXONIM IJODIDA KOMILLIK

Mana shunday betakror ijod namunalari "ona"si, o'zbek adabiyotining tengsiz namoyondasi, sarhad bilmas izhorlarga loyiq chinakam inson - Zulfiyaxonim ijodiga shunday ta'rif berish mumkin.

Zulfiyaxonim mualliflik satrlarini o'qib, ularning sehrli kuyida raqs tushgan har qanday qalb, shu ohang bergan kayfiyat, taassurot kuchida o'z tilidan, o'z dunyosidan bir parcha yulib berolsa, mana bu chinakam ta'rif bo'ladi. Zero, shoira ijodida ham birorta bir-birini takrorlagan yoxud boshqa ijodkorga taqlid yo'sinida yozilgan biror jumlaning uchratmaysiz. Va Zulfiyaxonimni madh etib yozilmish satrlar ham yozmoqni sharaf bilgan dilning o'z sa'si ila jaranglamog'i naqadar go'zal!

Komillik o'zi nima? Komillik bu kamol topgan, ruhan, ma'nan ulg'ayganlik demakdir. Ijoddagi komillik qanday bo'lishi mumkin? Tasavvur qiling, hali ulg'aymagan, dunyoqarashi to'liq shakllanmagan bola istaysizmi yo'qmi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadi, bunga yoshlik, o'yingaroqlik, tajribasizlik, oxiriga yetib ulgurmagani tarbiya natijasi deb qaralishi tabiiy. Biroq es-hushini tanigan, yoshi balog'atdan oshib yetuklik davriga qadam qo'ygani odamning xatti-harakatlarida oqsoqlik sezsangiz buni nima deb atash mumkin? Anglaganingizdek, komillik na yoshga va na jismga bog'liq. U ong va qalbning nafsoniy istaklardan g'olib kelib, hayot mazmunini aks ettiruvchi ruhiy sifatlarni to'g'ri shakllantira olganligi bilan bog'liq. Shunday yetuklikka erishgan ko'ngilgina komil ijodga oshyon bo'la oladi. Ya'ni, shu komil ijod yaratuvchisi avvalo komillik timsoli bo'lmog'i dardkor va Zulfiyaxonim shaksiz komil inson namunasidir. Buni his qilish uchun barmoqlarimiz shoira kitoblarini mehr bilan varaqlashi, oq qog'ozni qora chizgilar bilan bo'yagan o'ychan, sho'x misralar zabanimiz uzra jaranglashi, tasavvur esa hislarni ko'z oldimizda hayolan jonlantirishi kifoya. Va qarabsizki, siz o'z-o'zidan adibaning ijod bog'iga ko'chasiz, sekin atrofini go'zal manzaralarini kuzatib bog' to'riga tomon

qadam basasiz. Uzoqdan ilg'agan o'sha sharpaga yaqinlashavergach, uni kimligini anglaysiz. Ha, bu Zulfiyaxonim! U kishi sizga qarab jilmaygan, iliq nigoh ila boqib turibdilar. Har gal shoira ijodidan biror misra o'qir ekansiz, har safar shu bog' va uning abadiy malikasi tasavvur kengliklaringizda doim muntazir bo'ladi. Ijod ahlining mudom hayot ekanligi, ularning asarlari orqali mana shunday yod etilishidir. Qachonki bu ijod komillik pog'onasini bosib o'tgan bo'lsa albatta.

Shoira ijodini chin ma'noda shunday asarlar sirasida ko'ra olamiz, bu xulosaga quyidagi satrlar sehrli orqali erishamiz:

*Shu kunlarda bahorga zorman,  
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.  
Kuz singari za'far ruxsorman,  
Mevalar ham shoxlardan uzuq.*

Bir marta o'qib bir ma'no, ikkinchi, uchinchi galgisida yana va yana yangi mazmunlar kashf etish mumkin bu tengsiz misralarni nima bilan baholay olasiz?! Qarang, xuddi shunday, quyidagi satrlarni mutolaa qilib dili entikmagan bormikin?

*O'qilmagan maktub, taqilmagan ziynat  
Nodarkorlar ichra yotar kesakday,  
Uzoqroq, xilvatroq kunjakka irgit  
Naq jarroh pichog'i-kayfing kesarday!*

Bundan ziyod mukammallikka qiyoslov qayda?! Shunday go'zal, vujudga ehtiros, qaltiroq yugurtirgan, marvarid donasidek tizimi bequrur she'riy namunalar kimni baxt manziliga yo'llamaydi deysiz. Bu manzilning shodliklarini bir marta simirgan inson qayta va qayta u yerda bo'lishni xohlamasligi mumkin emas. Bu eng totli va xarajatsiz sayohat bo'lsa kerak! Keling, kaftingizni Zulfiyaxonim ijodxonasidan ajib bir kitobga oching, ko'z nuringizni mohir zargar tizgan so'zlar shodasiga yo'naltiring va samimiyat qanotida, musaffollik bag'rida chin ijod osmonida parvoz qiling. Har bir qalbgaga har kuni, har daqiqa shunday go'zal parvozlar tilayman.

**Kumush G'OYIBNAZAROVA,**  
"Tibbiy profilaktika" fakulteti 3-bosqich  
talabasi



## QUTLUG' KUN NASHIDASI

**Firdavsiy "Shohnoma" asarida keltirishicha, shoh Jamshid odamlarga yaxshilik qilish maqsadida ularga kerak bo'ladigan jamiki kasblarni o'rgatadi. So'ngra u o'ziga osmono'par bino qurdirib, uchar taxt yasattiradi. Taxtga minib osmonga ko'tariladi. Buni ko'rgan odamlar o'sha kunni "Navro'z" deb atashgan.**

Mir Alisher Navoyi ham Navro'z kunini ulug'ab shunday yozadi:

*Har tuning qadr o'libon,  
Har kuning bo'lsin Navro'z.*

Shuningdek manbalarda bayon etilishicha navro'zni bayram sifatida nishonlash miloddan avvalgi V-VI asrlarda boshlangan ekan. Qadimda navro'z bayrami bir hafta yoki o'n kun nishonlangan. Barcha yigit-qizlar Navro'z bayrami haftaligida turli o'yinlar ya'ni ot o'yini, chillak, lapar ayitshuv, ip o'yinlar uyushtirganlar, varrak uchirish kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ko'pkari-uloq, kurash kabi turli xalq o'yinlari ham o'tkazilgan. Bu o'yinlarda aytiladigan laparlar va qo'shiqlar bugungi kunda ham kuylanib kelinmoqda. Navro'z bayrami haqida allomalar asarlaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Muhimi, ajdodlarimiz ming yillar oldin bayram sifatida nishonlab kelingan an'ana hozirgacha munosib davom ettirilmogda.

Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari va an'analari bor, ular millat bilan birga yashaydi. Xalqimiz tarixining bir bo'laki bo'lgan, Navro'z har yili yangilanib kelayotgan eng aziz va milliy bayramimizdir.

Navro'z - yangi kun demakdir. Navro'z elchisi baraka, hosildorlik, to'kin-sochinlik, ahillik, tan sihatlik hamda ezgulik timsoli sifatida ta'riflanib kelingan. Shuning uchun ham Navro'z ayyomi kunlari har joyda ahillik va hamjihatlik hukm suradi, xayru saxovat eshiklari ochiladi, kekxa va dardmand kishilarga izzat ehtirom ko'rsatiladi. Hovli va ko'chalar obod qilinib, yangi ko'chatlar o'tqaziladi, daraxtlar oqlanadi, hovli joylar supuriladi, yangi ariqlar qaziladi, gullar ekiladi, ko'chalar



tozalanib, umumxalq hasharlari uyushtiriladi. Bu kunda har bir kishi go'zal insoniy fazilatlarini namoyon etib, bir-birlariga quvonch va mehr ulashadilar, urushganlar yarashadilar.

Kekxa buva-bivijonlarimizga bahorda ochilgan gullardan olib borsalar: "Esonlig-u omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi oy-u yillarga o'ynab-kulib yetaylik", deya tilak bildirishadi.

Sharq elining azaliy bayrami bo'lgan Navro'z asrlar davomida xalqning turmush tarziga singib, sayqal topib borayotgan qadriyatga aylanib ulgurdi. U inson orzu-o'ylari, niyat va maqsadlarini o'zida aks ettirgan ezgulik tantanasidir. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Navro'zga ham yangidan hayot bag'ishlandi. 1990 yildan boshlab 21 mart milliy umumxalq bayrami sifatida belgilandi. Bu ulug' ayyom yana hayotimizga, qalbimizga qaytdi. Millatimizning tom ma'nodagi ma'haviy ildizlaridan biriga, shuningdek, mamlakatimizdagi

el-u elatlarni yaqinlashtiradigan va birlashtiradigan vositaga aylandi.

Barcha daraxtlar qiyg'os bo'lib gullagan, qir-adirlar va bog'lar yamyashil o't-o'lanlarga burkangan, turli-tuman gullar o'z nafosatiyu go'zalligini namoyon etmogda. Qushlar va bahor elchisi bo'lgan qaldirg'ochlar ham bu go'zal tabiatning chiroyidan bahramand bo'lib, zo'r berib kuylayotganini aytmasdan iloj yo'q. Bir yonda o'yin-kulgu, bir yonda laparlar deysizmi, hamma hursand. Ming shukrki, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Diyorimizdagi yaxshi o'zgarishlar tufayli kishilarimiz ko'ngli tog'day ko'tarilmogda. Muhimi, barcha shod, mamnun. Demakki, mustaqil yurtimiz yanada ko'rkam va obod bo'laveradi.

**Farruxjon ASHURBOYEV,**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
hamda Qozon davlat tibbiyot  
universiteti  
Xalqaro fakultet davolash ishi  
yo'nalishi talabasi



## SUMALAK SAYLLARI

**Navro'z arafasida tashkil etilgan sumalak sayllari Toshkent tibbiyot akademiyasining barcha talabalar turar joylarida bo'lib o'tdi. Sayllardan ko'zlangan asosiy maqsad – talaba-yoshlar o'rtasida xalqimizning ming yillaridan buyon ardoqlab, qadrlab kelinayotgan urf-odatlarini asrab-avaylashdan iborat.**

Sumalak sayllarida Toshkent tibbiyot akademiyasining rektori, prorektorlar, fakultet dekanlari, professor-o'qituvchilari hamda TTJlarda ishlovchi talabalar faol ishtirok etdilar. Sumalak sayllari 9 kun talabalarga xushkayfiyat bag'ishladi. Talabalar ijrosida

namoyish qilingan xalq laparlari va sahna ko'rinishlari bayramga yanada ko'tarinkilik bag'ishlandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-son davolash fakultetiga qarashli talabalar turar joyida, talabalar uchun tashkil etilgan sumalak saylida turkiyalik mehmonlar ham ishtirok etdi.



Bundan tashqari, talabalar turar joyiga tashrif buyurgan mehmonlar, universitet professor-o'qituvchilari, qurilish va talaba-yoshlar uchun xalqimizning milliy taomi bo'lmish osh pishirildi.

**TTA Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi**

## YALPIZ SOMSA

Feruzalar shaharda, to'qqiz qavatli uyda turishadi. Shuning uchun u dalaga borishni juda yaxshi ko'radi.

Bir kuni dadasi Feruzaga:

– Ertaga Karim amakingnikiga boramiz, – deb qoldi.

Feruzasuyunganidan chapak chalib yubordi. Bo'lmasa-chi, Karim amakar shundoq tog'ning yonida – Parkent degan qishloqda turishadi. U kishi Feruzaning dadasi bilan o'rtoq. Karim akaning ikkita qizi bor. Ikkalasi ham Feruzasuyungan bilan baravar: Fotima-Zuhra.

– To'qqiz ham chiqamizmi? – dedi Feruzasuyunganidan qichqirib. – Har xil gullar teramiz-a?

– Albatta! – dedi dadasi. – Sen Fotima-Zuhraga nima sovg'a qilasan?

Feruzasuyungan o'ylab-o'ylab, oxiri o'zi rasm chizgan albomini sovg'a qiladigan bo'ldi.

Ertasiga ertalab Feruzasuyungan, dadasi, oyisi – uchovlari avval tramvayga, undan keyin avtobusga o'tirib, yo'lga tushishdi. Ancha yurganlaridan keyin, avtobus manzilga yetib keldi. Atrofdabaland-baland tog'lar shundoq ko'rinib turar, ko'm-ko'k daraxtlar shamolda silkinardi. Suv shovillab oqib yotgan kattakon soy bo'yidan borib, Fotima-Zuhralarning hovlisiga kirishdi. Hovlida ikkita qo'zichoq, uchta echkicha chopqillab yurardi.

Uyga kirib, dasturxon atrofida o'tirishdi. Feruzasuyungan tezroq gul terгани borgisi keldi.

– Yuringlar, gul terгани boramiz, – dedi Zuhraga.

– Ketdik, – Zuhra Feruzaning qo'lidan ushlab yo'l boshlagan edi, oyisi tayinladi:

– Yalpiz ham terib kelinglar.

Feruzasuyungan yalpizni hech ko'rmagan edi.

– Nima, yalpiz ham gulmi? – deb so'radi Fotimadan.

– Voy, yalpizni bilmaysanmi? – Fotima hayron bo'ldi, – yalpiz o't-ku!

– Nima qiladi uni?

– Nima qilardi, yeydi-da! – Bu gal Zuhra tushuntirdi. – Somsa qilib yesa ham bo'ladi. Ovqatga qo'shsa ham bo'ladi.

Qizaloqlar soy yaqinidagi o'tloqqa borishdi. Feruzasuyungan shaharda fontan yonidagi gulzorni ko'p ko'rsa ham, bunaqa gullarni hech ko'rgan emasdi.

– Bu – qoqigul, – deb tushuntirdi Fotima. – Qara, xuddi tugmachaga o'xshaydi: dumaloq, sap-sariq.

– Bunisi – boychechak, – dedi Zuhra nayzachaga o'xshagan uch burchak gulni uzib. – Boychechak-chi, qordan ham, sovuqdan ham qo'rqmaydi.

– Yalpiz-chi, yalpiz qaysi?

– Mana, mana shular yalpiz-da! – Fotima bilan Zuhra chaqqonlik bilan yalpiz uzishga tushib ketishdi.

Feruzasuyungan ham yalpizlardan terib etagiga solaverdi. Anchadan keyin Fotimasuyungan uning yoniga keldi.

– Mana, ancha terdim, – dedi Feruzasuyungan etagidagi yalpizlarni ko'rsatib.

– Voy, bu yalpiz emas, yovvoyi beda-ku! – Fotima kulib yubordi. – Yalpiz bunaqa bo'lmaydi. Ko'rdingmi, yovvoyi bedaning barglari dumaloq, tangaga o'xshaydi. Yalpizniki uzunchoq bo'ladi. Keyin to'q yashil bo'ladi. Mana, hidini qara!

Feruzasuyungan uyali ketdi. Etagidagi o'tlarni to'kib tashladi-da, Fotima ko'rsatgan yalpizlarni tera boshladi. Ammo baribir mana shu o'tlardan somsa pishirsa bo'lishini hech tushuna olmasdi.

Peshinga yaqin qizaloqlar ancha-muncha yalpiz, binafsha, turli-tuman gullar terib kelishdi. Fotima-Zuhralarning ayasi yalpizlarni yaxshilab yuvdi-da, pichoq bilan maydalab, somsa tugdi. Keyin tandirga yopdi.

Pishgandan keyin Feruzasuyungan yeb ko'rgan edi, qarasa, maza!

– Yaxshi ekan! – dedi Fotima-Zuhralarga qarab.

– Yalpizni o'zing terganing uchun somsa yanayam shirin bo'lib ketgan, – dedi dadasi kulib.

Kechqurun Feruzalar shaharga qaytishayotganda, Fotima bilan Zuhra unga ancha yalpiz somsa berdi. Feruzasuyungan uyali turgan edi, Fotima tushuntirdi:

– Bog'chadagi o'rtoqlariga berasan. Ular ham yalpiz somsa yeb ko'rishsin-da.

Feruzasuyungan somsalarni olarkan:

– Rahmat, – deb qo'ydi.

**O'tkir HOSHIMOV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Rektorati va Kasaba uyushmasi farmakologiya kafedrasiprofessori, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi"

**O'zuv Boqiyevich ZOKIROVning**

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.





## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LVON QILADI

(2022 yil mart)

№	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi	assistent – 1,0
2.	Urologiya	assistent – 1,0
3.	1-son akusherlik va ginekologiya	dotsent-1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	2 son bolalar kasalliklari	assistent – 1,0
2.	1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala xirurgiyasi	assistent – 1,0
<b>Tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Normal va patologik fiziologiya	patologik fiziologiya assistent – 1,0 normal fiziologiya assistent – 1,0
2.	Pedagogika va psixologiya	dotsent – 1,0
3.	2-son fakultet va gospital terapiya	kafedra mudiri – 1,0
4.	Xirurgiya va transplantologiya	kafedra mudiri – 0,75
5.	Psixiatriya va narkologiya	katta o'qituvchi – 1,0
6.	3-son ichki kasalliklar	katta o'qituvchi – 0,75
7.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala xirurgiyasi va neyroxirurgiya	assistent – 0,5
<b>Tibbiy profilaktika fakulteti</b>		
1.	Kommunal va mehnat gigiyenasi	katta o'qituvchi – 1,0 assistent – 1,0
2.	Epidemiologiya	katta o'qituvchi – 1,0
3.	Dermatovenerologiya	assistent – 1,0
<b>Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMH fakulteti</b>		
1.	O'zbek va xorijiy tillar	rus tili: dotsent – 1,0 lotin tili: o'qituvchi – 1,0
2.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	katta o'qituvchi – 1,0
3.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistent – 1,0
4.	Farmakologiya	assistent – 1,0
5.	Tibbiy radiologiya	assistent – 0,5

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

## SOG'LOM AVLOD MALIKALARI

**Toshkent tibbiyot akademiyasining sport kompleksida talaba qizlar hamda ayol xodimlar o'rtasida "Sog'lom avlod malikalari" deb nomlangan sport musobaqasi o'tkazildi.**

Bahorning ilk bayrami 8 mart – Xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan musobaqada ishtirokchilar sportning voleybol, shaxmat-shashka, stol tennis, yengil atletikaning yaqin masofaga yugurish turlari bo'yicha do'stona bellashdilar.

Sportning voleybol turi bo'yicha birinchi 1-davolash fakulteti qizlariga nasib etdi. O'qituvchi-professor ayollar o'rtasida sportning shaxmat turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 1-o'rin litsey o'qituvchisi D.Babaxanovaga nasib etgan bo'lsa, shashka musobaqasidagi g'oliblikni OMX fakulteti yuturi I.Maxkamova qo'lga kiritdi.

Talaba qizlar o'rtasida o'tkazilgan shaxmat-shashka musobaqasida 1-o'rin OMX fakulteti talabasi M.Jo'rayeva hamda tibbiy profilaktika fakulteti talabasi L.Kirgizbayevaga, yengil atletika bo'yicha esa tibbiy profilaktika fakulteti talabasi Z.Zoirovaga nasib etdi.

Stol tennis bo'yicha o'tkazilgan musobaqaning o'qituvchilar ishtirokidagi o'yinlarida patologik fiziologiya kafedrasida o'qituvchisi D.Axmedova g'olib bo'ldi.

TTA qoshidagi litsey o'quvchisi M.Shermuratova ham mazkur musobaqaning g'oliblari qatoridan o'rin oldi.



Musobaqa yakunida har bir fakultetning "Sheypping" guruhi qizlari ishtirokidagi chiqishlar ham maroqli bo'ldi.

Sheyppingchi qizlar o'rtasidagi g'oliblikni tibbiy profilaktika fakulteti qizlari qo'lga kiritdi.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi matbuot xizmati**

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abdugodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.

Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi